

Urganch davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

**Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi**

**abdusharifovasarvinoz@gmail.com**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Omon Matjonning "Ming bir yog'du" kitobidan o'rinni olgan Vatan, el-u yurt birligi, uning ma'naviyati, yuksalishi kabi qator mazmunni o'zida aks ettirgan she'rlari tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** "Ming bir yog'du", istibdod, istiqlol

### **ГИМН СТРАНЫ В ИСПОЛНЕНИИ АМОН МАТДЖОН.**

#### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются стихи народного писателя Узбекистана Амона Маджона из книги «Минг бир йогду», которые отражают ряд содержаний, таких как Родина, единство страны, ее духовность, ее подъем.

**Ключевые слова:** «Тысяча и один дождь», тирания, независимость.

### **ANTHEM OF THE COUNTRY BY AMON MATJON.**

#### **ANNOTATION**

In this article, the poems of the national writer of Uzbekistan Amon Matjon from the book "Ming bir yogdu" are analyzed, which reflect a number of contents such as the Motherland, the unity of the country, its spirituality, and its rise.

**Key words:** "A thousand and one rains", tyranny, independence

Omon Matjon o'zbek adabiyotida o'z ovozi, o'z iste'dodi va ijodiga ega ijodkordir. Sho'ir qaysi mavzuda qalam tebratmasin, ularning barchasida o'ziga xos topilmalar, badiiy kashfiyotlar qo'llaydi. Sho'ir she'riyatida Vatan, yurt ozodligi, uning ravnaqi masalalarining o'ziga xos talqini bayon etiladi, yoritiladi.

Biz shoirning 1989-yil Adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan chop etilgan "Ming bir yog'du" kitobini tahlil qilar ekanmiz, unda tahlilga tortilgan aksariyat she'rlar bevosita yoki bilvosita Vatan, istiqlol madhiga bag'ishlangan, ya'ni shoirning ko'plab ijod namunalarida ushbu mavzular asosiy mavzu sifatida alohida berib borilsa, ayrimlarida boshqa mavzularga yondosh ravishda shoir ijodining bosh maqsadi "debocha"si bo'lib xizmat qiladi. 1984-yilda yaratilgan "Sendan xabar keltirsa...", "Tarix muzeyida", "Fonteblo qasri tovuslari", 1985-yilda

yozilgan “Bir janobga javob”, “Dengizdagi shaxmat o‘yini”, “Uyg‘onish xabari”, 1986-yilda yozilgan “Men bulut bag‘riga sin solib boqsam...”, “Qo‘qon yodlari”, “Bir kuni”, “Bu daraxt”, “Suhbatdosh”, 1987-yilda bitilgan Vavilon qal’asining xarob bo‘lishi” kabi she’rlarda shoir xalqni uyg‘otish, uning ma’naviyatini yuksaltirish, yurtni istibdodning qora kunlaridan xalos etish, yurtga o‘zligini anglatish kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Shoirning “Sendan xabar keltirsa...” deb boshlanuvchi she’ri quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Sendan xabar keltirsa,  
Men o‘pardim shamolni:  
Yo‘q bo‘lsa ham lablar

Yo‘q bo‘lsa ham gaplari[Ming bir yog‘du, Omon Matjon, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 35-bet].

Ma’lumki, shamol obrazi badiiy adabiyotda an’anaviy obraz bo‘lib, u ijodkorning ichki fikr-o‘ylari, his-tuyg‘ulari, vaqt va davrning o‘ziga xos holati, qolaversa, tabiat hodisasi singari turlicha ma’nolarni anglatib keladi. Shoir ham ushbu an’anaviy obrazdan unumli foydalanadi. She’rda u xabarchi, ya’ni istiqlol xabarchisi bo‘lib gavdalanadi. Shamolning lablari, biror so‘z deguvchi zaboni yo‘qligi tabiiy hol, albatta. Biroq shoir “istiqlol shamoli” ni garchi uning o‘pishga “lablari”, aytishga-da “gaplari” yo‘q bo‘lishiga qaramasdan uni suyadi, ardoqlaydi. Keyingi bandlarda shoir Amudaryo, Sirdaryo, tillo patli qushchalar, hatto yov, dushman obrazlarini-da xabarchi darajasiga ko‘taradi. Shoir istiqlodan xabar keltiradigan ikki daryoni “qo‘sh baxtim” deya madh etadi. Tillo patli qushchalar xabar keltirgan ondayoq o‘zi qush kabi yengil parvoz qilajakigini bayon etadi. Shoir fikrlarini bayon etar ekan, she’rning so‘nggi bandida falsafiy mushohada yuritadi. Shoir yozadi:

Ammo orzularimdan  
Tunning umri qisqadir,  
Ko‘kka yulduzim qaytar,

Osmona izim qaytar[Ming bir yog‘du, Omon Matjon, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 35-bet].

Ushbu misralardan shuni anglashimiz mumkinki, shoirning dilidagi so‘nmas, eng nekbin orzusi bu istiqlol orzusidir. Uning bu orzusi, ya’ni istiqlol orzusi shu qadar bisyorki, hatto uning oldida tunning, istibdodning umri qisqa bo‘lib qoladi. Ya’ni shoir ushbu jumla orqali bu azim diyorda hukmron bo‘lgan istibdodning zulmati bir kun, albatta, so‘nib, uning ortidan istiqlolning yorug‘ tongi boshlanishini aytib, o‘tmishda ajdodlar yoqqan chiroq yana yonishini, yulduz bo‘lib

porlashini, shuhrati osmon qadar yuksalishini hamda shoir Omon Matjon ham ularga izma-iz ravishda ajdodlarga munosib vakil bo‘lishini bayon etadi.

Shoir istiqlol kunlarini xayol qilar ekan, xalqni ma’naviyatini, o‘zligini uyg‘otishga harakat qiladi. Istiqlol deya bong urganda ham, xalqdan sas-sado chiqmasa, xalqqa “xo‘jayinlar” ko‘paysa, bundan hech ish chiqmasligini to‘g‘ri anglaydi va xalqni yurtning o‘z go‘zalligi, o‘z milliy ma’naviy borligini anglashga va asrab-avaylashga da’vat etadi:

Bu qushlarni ko‘rib, jon-u tanimdan

Bo‘lak bezovtalik o‘tdi va hadik;

Bosqinchi-zobitlar anjumanidan

Doim tashqarida qolar go‘zallik[Omon Matjon, Ming bir yog‘du, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989,41-bet].

Yuqoridagi misralardan shuni anglashimiz mumkinki, shoir ushbu fikr orqali turli urush va bosqinlar go‘zallikni poymol etishi, yurtni xarob qilishini ta’kidlaydi. Yoki shoir:

Ajabo! Bitta xalq shuncha jon chekib,

So‘nggi, og‘ir jangni etganda tayin.

Zo‘rg‘a ag‘darganda bitta podshoni

O‘rniga chiqibdi mingta “xo‘jayin”[Omon Matjon, Ming bir yog‘du, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 40-bet].

Deya xalqni yakdillikka chorlab, o‘zgaga bo‘yin egmasdan o‘ziga bek bo‘lishga chorlaydi.

Shoir she’rlarida hurfikrlilikni tarannum etar ekan, yurtimizning har jabhada boy ekanligini, ma’naviy va moddiy boyliklari bisyor ekanligini ayta turib, xalqda faxr tuyg‘usini uyg‘otishga bel bog‘laydi. O‘zgalar nazarida go‘yo majhul, kimsasizdek ko‘ringan bu yurt asli ma’naviyat va ma’rifat beshigi ekanligini, uning moddiy va ma’naviy boyliklari endilikda jahon muzeylarini bezab, ularga ko‘rk bag‘ishlab turganini ularga eslatadi. Jumladan, shoirning “Bir janobga javob” deb nomlangan she’rida ham shunday mazmun mujassam. She’r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

G‘aroyib zamon bu, dunyoga boqsang,

Bir yoq cho‘l, bir yog‘i bog‘dek ko‘rinur.

Tog‘day mehnatingni goh hech kim aytmay,

Tariqday illating tog‘dek ko‘rinur.[Omon Matjon, Ming bir yog‘du, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1989, 36-bet].

She’rda keltirilishicha, shoir Parijda ekanligida bir janob o‘zbekni tanishini, ya’ni u o‘zbekni Moskva bozorlarida allambalo sotib o‘tirishini masxara qiladi.

Bunga javoban shoir butun fransuzlar “Boburnoma”-yu Navoiy asarlarini o‘z ona tilida o‘qishlarini eslatib o‘tadi. Shoir fikrlarini davom ettirar ekan, o‘zbekni olibsotar degan fransuzliklarga asli kim olib sotar ekanligini tarixiy dalillar bilan isbot etadi: fransuzlarning o‘zлari inglizlarga Janna d’ Arkni sotganliklari-yu Parijni bir paytlar kimlar jangsiz sotganliklarini butun dunyo bilishini aytadi. Keyingi bandlarda shoir Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon nomlarini keltirar ekan, bu yurtning qanchadan- qancha talangan mollari jahonning qaysi muzeyi bo‘lmashini, barchasini o‘lkaning boyliklari bezab turganligini sovuq oh bilan oladi. Vatanimizning nafaqat moddiy boyliklari, balki “Sinodan Boburgacha” bo‘lgan davrdagi eng nodir namunalari, qo‘lyozmalar G‘arbda, o‘q o‘tmas oyna ostida saqlanayotganligini chuqur istehzo bilan so‘zlar ekan, keyingi bandda bu qarashlarning davomi sifatida o‘zbek yeri butun yer yuzini to‘yg‘azishga qodir ekanligini, shuncha mehnat bilan tergan paxtasni asl bahosiga qaramay boshqa millatlarga sotishini alam bilan tilga oladi. Shoir ushbu fikrlari orqali aslida kimning oldi-sotdiga ustasi farang ekanligini ko‘rsatadi:

Ha, oldi-sotdiga ustasi farang

O‘zidir! Ming xilin yana qiladi.

Lekin Moskvani iforga burkab,

Gul sotgan o‘zbekka ta’na qiladi[Omon Matjon, Ming bir yog‘du, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 37].

Shoir she’rni go‘zal misralar bilan yakunlaydi, ya’ni o‘zbek gul sotib, Moskva ko‘chalarini gul iforiga burkaydi deya faxr etadi. Aslida o‘zbek qay yurtda, qay kasbda bo‘lmashin, har vaqt shu yurtni gullatadi, yashnatadi.

Quyida keltirilgan she’rida shoirning ham Vatan ravnaqi, uning kelajagi haqidagi o‘ylari bayon etilgan:

Qanday yaxshi,

Hamma o‘z ishini qilsa

Bu Daraxt girdida, bu Daraxt uchun:

Ikki daryo mo‘llab suv tashib tursa,

Quyosh har bargiga qavisa uchqun[Omon Matjon, Ming bir yog‘du, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. 4-bet].

Omon Matjonning “Bu daraxt” deb nomlangan ushbu she’ri majoziy ma’noda yozilgan she’rlar sirasiga kiradi. She’rning birinchi bandida “Daraxt” so‘zi qo‘llangan bo‘lib, bu so‘z bejizga bosh harf bilan yozilmagan, aksincha bu tushuncha ramziy ma’no anglatib, ko‘chma ma’noda Vatan, el-yurt tushunchasini ifodalab kelgan. Bandning mazmuni esa bevosita shu yurtda yashovchi shaxslar bilan aloqador bo‘lib, bunda har bir shu mamlakatda istiqomat qiluvchi aholi uning

ravnaqiga o‘z mehnati bilan hissa qo‘sib, kelajakda uning gullab-yashnashiga astoydil harakat qilishi haqida so‘z brogan. She’rning ikkinchi misrasida “bog‘bon” va “nihollar” tushunchalari qo‘llangan bo‘lib, “bog‘bon” ramziy obrazi orqali yurtboshimiz nazarda tutilgan. “nihol” obrazi orqali esa kelgusi avlod vakillari tilga olinadi. Albatta, bu tushunchalar yurtning tayanchi bo‘lib, uning kelajakda tutgan o‘rnini belgilab beruvchi muhim omillar sanaladi. Chunonchi, Vatanning rivoji, uning butun dunyoga tanilishida barkamol avlodning o‘rni beqiyos. Agar yurtning jazzi vakillari kelgusida sog‘lom fikrli shaxslar bo‘lib voyaga yetsalar-u, yetuk olim, injener, muallim, shifokor va sportchi bo‘lsalar, ular, shaksiz, O‘zbekistonning nomini jahon minbarlarida yangrashiga sababchi bo‘lishadi. Bu holatni yuzaga keltirishda o‘z kasbining fidoyilar, o‘qituvchilar katta mehnat qilishadi(3-misra). To‘rtinchi misrada bo‘lsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri shoirning maqsadi bayon etilgan bo‘lib, bunda shoir yurtning dovrug‘ini dunyoga doston qilishni hamda ona Vatani bilan faxr etishini baralla aytadi.

Shoirning “Ming bir yog‘du” to‘plamiga kiritilgan “Uyg‘onish” she’rini tahlil qilar ekanmiz, she’rning birinchi bandida yerni g‘aflat uyqusidan uyg‘otgan bahor, ikkinchi bandida farzandni voyaga yetkazib, ma’naviy kamol toptirib “uyg‘otgan” ona, uchinchi bandida insondagi diyonat bir burchakka bekinib, aldov, xiyonat davrboshi bo‘lgan bir paytda yurakka qiyomat solib vijdonni uyg‘otgan imon, to‘rtinch bandda tunni yulduz bilan uyg‘oq etolgan sevgi haqida to‘xtalar ekan, shoir she’rning oxirgi bandida butun yurt, Vatan farzandlari oldiga bir savol qo‘yadi:

Lekin bir xalq mudrab, yotinqirasa,

Har kimga o‘z tinchi yoqinqirasa,

Shoirlari qo‘rqib bosinqirasa,

Xalqni kim uyg‘otar,

Savolim shuldir?! [Omon Matjon, Ming bir yog‘du, G‘. G‘ulom nomidago Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. 5-bet]

Shoir o‘lkaning taqdiriga befarq bo‘limgan holda barchaga birdek muhim bo‘lgan bir savolni o‘rtaga qo‘yadi: agar shu yurt tuprog‘ida tug‘ilib, voyaga yetgan o‘g‘il-qizlar g‘aflat uyqusiga botib, uyg‘onmasa, shu diyorning ziyoli, ilmlı vakillari kelajak uchun, yurt ravnaqi uchun bor ilmini, kuch-g‘ayratini, kerak bo‘lsa, jonini fido qilishga tayyor bo‘lmasdan o‘z tinchini o‘ylab panaga qochsa, yurtning shoirlari qo‘rqib, xalqni uyg‘oqlikka da‘vat qilmasa, bu xalq, bu millatni kim uyg‘otadi, deya barchani ogohlilikka, g‘aflat uyqusidan mudragan ko‘zlarni ochishga undaydi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan journalist Kamol Matyoqubov ijodkor haqida quyidagi fikrlarni berib o‘tadi: ”Shoirning “Quyosh soati” kitobida shunday so‘zlar bor;” Xorazmda tog‘lar yo‘q emas, bor;- Xorazm tog‘lari vohani tongda

quyoshdan to'sib qo'ymaslik uchun odamlar qiyofasida yashashadi!—Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Hojixon[Omon Matjon, Quyosh soati,—Toshkent;”Yosh gvardiya”,1974.75-bet].”Mening nazarimda ular yonida odam qiyofasidagi yana bir tog‘ paydo bo‘ldi—uning nomi Omon Matjondir”. Haqiqatan ham, shoirni tog‘ga mengzasak, mubolag‘a bo‘lmaydi, albatta. Negaki bu tog‘ hali necha asrlar osha xalqning ma’naviy xazinasiga ko‘rk bag‘ishlab turadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Shoir she’rlarining asosiy qismini el-yurt ravnaqi, ona diyor madhiga bag‘ishlangan she’rlar tashkil qilishi bejiz emas, sababi Omon Matjon o‘z ijodini Vatandan, unga bo‘lgan ayri tasavvur eta olmaydi. Shoir she’rlari orqali biz, ya’ni o‘zbek xalqi o‘z milliy g‘ururimizni tuyamiz, unga bo‘lgan muhabbatimizni shu ijod namunalari orqali kamol toptiramiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Omon Matjon. Ming bir yog‘du. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989-yil.
2. Omon Matjon. Quyosh soati. –Toshkent;”Yosh gvardiya”. 1974-yil.